

ENDOKRIN OFTALMOPATIYADA EKSTRAOKULYAR MUSHAKLAR VA KO'Z ICHI BOSIMINI O'RGANISH NATIJALARINI QIYOSIY BAHOLASH

Yuldashov S.A.

Nozimov A.E.

Ahmedova S.M.

Odam anatomiyasi va OXTA kafedrası tayanch doktoranti, Toshkent tibbiyot akademiyasi, sarvar.yuldashov.91@mail.ru,
<https://orcid.org/0009-0000-7351-5775>

PhD, Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi, bo'lim mudiri dr.nae@mail.ru,
<https://orcid.org/0000-0002-8315-3429>

Tibbiyot fanlari doktori, Odam anatomiyasi va OXTA kafedrası dotsenti,
Toshkent tibbiyot akademiyasi, sayyora.akhmedova@gmail.com,
<https://orcid.org/0000-0001-6040-5200>
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14011016>

Annotatsiya. Endokrin oftalmopatiya (EOP) qalqonsimon bezning disfunktsiyasi natijasida kelib rivojlanuvchi autoimmun kasallik bo'lib, surunkali progressiv shaklda orbita yumshoq to'qimalarining yallig'lanishi va ekstraokulyar mushaklar (EOM) qalinlashishi bilan namoyon bo'ladi. Oxirgi o'n yillik davomida EOP asosan yosh, mehnatga layoqatli va reproduktiv yoshdagi odamlar o'rtasida ko'paymoqda [1]. Ilmiy adabiyotlarda EOP fonida ko'z olmasi hamda uning yordamchi qismlarida kuzatiladigan patologik jarayonlar haqida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan, lekin ular o'rtasidagi bog'liqlik (masalan: ko'z ichki bosimi, EOP og'irlik darajasi va EOM shishi) haqidagi tadqiqot natijalari kamchilikni tashkil qiladi [2,3,4,5]. Klinik tadqiqotlar xulosasiga ko'ra EOP kasalligi bor bemorlarning $\frac{1}{4}$ qismida ko'z ichki bosimi oshishi aniqlangan. Buning asosiy sababi sifatida esa quyidagilar ko'rsatib o'tilgan: orbital venoz dimlanish, orbital yumshoq to'qimalar hajmining oshishi va shishgan EOMning ko'z olmasini bosishi [6,7,8].

Kalit so'zlar: endokrin oftalmopatiya, ikkilamchi glaukoma, ekstraokulyar mushaklar.

Tadqiqotning maqsadi: endokrin oftalmopatiya tashxisli bemorlarda ekstraokulyar mushaklar qalinlashishi, ko'z ichki bosimi oshishi va kasallikning og'irlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash.

Tadqiqot material va usullari: Ilmiy tadqiqot Akademik Y.X.To'raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Farg'ona filiali (RIEIATMFF) da 2019-2024 yillar davomida

tireotoksikoz fonida endokrin oftalmopatiya (EOP) bilan kasallangan 72 (144 ta ko'z) nafar bemorlarda o'tkazildi. Klinik tadqiqotda 20 yoshdan 71 yoshgacha bo'lgan 54 nafar ayol va 18 nafar erkak qatnashdi. Bemorlarning o'rtacha yoshi $44,8 \pm 1,4$ yoshni tashkil qildi. Barcha bemorlar ko'zining holati umumiy oftalmologik tekshiruvlar orqali baholangan. Shuningdek, bemorlarda ekstraokulyar mushaklarning biometriyasi skleradan 6-8 mm uzoqlikda Accutome B-ScanPlus (AQSh) apparati yordamida 10 dan 65 dB gacha kuchlanish diapozonidan foydalanildi. Bemorlarga tashxis qo'yishda xalqaro NOSPECS (S.Werner, 1977) tasnifidan foydalanildi.

Tadqiqot natijasi. NOSPECS tasnifi bo'yicha bemorlarda quyidagi patologik holatlar aniqlandi: 15 ta bemorda yuqori qovoq retraksiyasi, 10 ta bemorda xemoz va konyunktiva ineksiyasi, 46 ta bemorda ekzoftalm, 8 ta bemorda keratit va 6 ta bemorda esa ko'rish o'tkirligining pasayishi.

Tadqiqot davomida 26 nafar (36%) bemorlarda EOP fonidagi ikkilamchi glaukoma aniqlandi. Shundan 14 nafar bemor I bosqich, 12 nafarida esa II bosqich glaukoma tashxisi tasdiqlandi. Lekin glaukomaning III va IV bosqichi tadqiqot davomida aniqlanmadi. Norma darajadagi ko'z ichki bosimi 56 nafar bemorda ($n=78\%$) aniqlandi ($18,4 \pm 4,55$ mm sim.ust). Ko'z ichki bosimini oshishi ($26,0$ mm sim.ust.dan ortiq) 14 ta ($n=22\%$) bemorda aniqlandi va ularga antigipertenziv terapiya tavsiya etildi.

Shuningdek, bemorlarning endokrin oftalmopatiya darajasi va ekstraokulyar mushaklar exografik tekshiruvi va KIB natijalari o'rtasida to'g'ri kuchli bog'liqlik ($P=0.001, R=0,38$) aniqlandi.

Xulosa. Endokrin oftalmopatiya tashxisli bemorlarda ko'z olmasi va orbita yumshoq to'qimalarining ultratovush diagnostikasi, ko'z ichki bosimi monitoringi va kasallikning klinik kechishini bir vaqtda baholash orqali ikkilamchi glaukoma rivojlanish xavfini aniqlash mumkin. Bu esa EOP fonida rivojlanuvchi ikkilamchi glaukomaning diagnostikasi (perimetriya, oftalmoskopiya va tonometriya) uchun qo'shimcha mezon sifatida xizmat qiladi va EOPning asoratlari davolash uchun klinik amaliyotda keng foydalanishga tavsiya etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Song, R. H., Wang, B., Yao, Q. M., Li, Q., Jia, X., & Zhang, J. A. (2019). The Impact of Obesity on Thyroid Autoimmunity and Dysfunction: A Systematic Review and Meta-Analysis. *Frontiers in immunology*, 10, 2349. <https://doi.org/10.3389/fimmu.2019.02349>
2. Song, R. H., Wang, B., Yao, Q. M., Li, Q., Jia, X., & Zhang, J. A. (2019). The Impact of Obesity on Thyroid Autoimmunity and Dysfunction: A Systematic

- Review and Meta-Analysis. *Frontiers in immunology*, 10, 2349.
<https://doi.org/10.3389/fimmu.2019.02349>
3. Kalmann, R., & Mourits, M. P. (1998). Prevalence and management of elevated intraocular pressure in patients with Graves' orbitopathy. *The British journal of ophthalmology*, 82(7), 754–757.
<https://doi.org/10.1136/bjo.82.7.754>
4. Betzler, B. K., Young, S. M., & Sundar, G. (2022). Intraocular Pressure and Glaucoma in Thyroid Eye Disease. *Ophthalmic plastic and reconstructive surgery*, 38(3), 219–225. <https://doi.org/10.1097/IOP.0000000000002049>
5. Haefliger, I. O., von Arx, G., & Pimentel, A. R. (2010). Pathophysiology of intraocular pressure increase and glaucoma prevalence in thyroid eye disease: a mini-review. *Klinische Monatsblätter für Augenheilkunde*, 227(4), 292–293.
<https://doi.org/10.1055/s-0029-1245199>
6. Şahlı, E., & Gündüz, K. (2017). Thyroid-associated Ophthalmopathy. *Turkish journal of ophthalmology*, 47(2), 94–105.
<https://doi.org/10.4274/tjo.80688>
7. Gomi, C. F., Yates, B., Kikkawa, D. O., Levi, L., Weinreb, R. N., & Granet, D. B. (2007). Effect on intraocular pressure of extraocular muscle surgery for thyroid-associated ophthalmopathy. *American journal of ophthalmology*, 144(5), 654–657. <https://doi.org/10.1016/j.ajo.2007.07.026>
8. Betzler, B. K., Young, S. M., & Sundar, G. (2022). Intraocular Pressure and Glaucoma in Thyroid Eye Disease. *Ophthalmic plastic and reconstructive surgery*, 38(3), 219–225. <https://doi.org/10.1097/IOP.0000000000002049>

